

KO'CHMAS MULK BOZORI TAHLILI

QISQA TAVSIF


2026-YIL I CHORAK

Markaziy bank 2026-yil I choragi uchun "Ko'chmas mulk bozori tahlili"ni e'lon qildi. Sharhda iqtisodiy faollik va uy-joyga bo'lgan talab yuqori shakllanishi fonida ko'chmas mulk bozorida sezilarli jonlanish kuzatilgani qayd etildi. Bozor faolligi ipoteka kreditlari hajmining kengayishi, aholi real daromadlarining o'sishi hamda qurilish va investitsion faollikning yuqori darajada saqlanishi bilan qo'llab-quvvatlandi. Shu bilan birga, 2026-yil 1-apreldan eskrou tizimining joriy etilishi fonida mart oyida bitimlar sonining keskin oshishi kuzatildi.


Ko'chmas mulk bozorida I chorak davomida oldi-sotdi bitimlari soni 110,1 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 48,4 foizga oshdi. Bitimlar sonining eng yuqori o'sishi Sirdaryo (67 foiz), Toshkent shahri (64 foiz), Andijon (56 foiz) va Navoiy (52 foiz) viloyatlarida kuzatildi. Ushbu tendensiya hududlarda iqtisodiy faollik va urbanizatsiya jarayonlarining kuchayib borayotganini ko'rsatmoqda.

Bozor faolligining ortishi asosan ipoteka moliyalashtirish hajmining kengayishi va aholi real daromadlarining o'sishi bilan izohlanadi. 2026-yil I choragida ajratilgan ipoteka kreditlari hajmi 5,7 trln so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 29 foizga oshdi. Shu bilan birga, aholi real daromadlari 7,8 foizga o'sib, uy-joyga bo'lgan talabni qo'llab-quvvatladi.

Ajratilgan ipoteka kreditlari,
trln so'm



Qurilish ishlari hamda hajmining
o'sishi sur'ati, foizda




Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.


Joriy yilning I choragida qurilish sektoridagi yuqori faollik turar-joy binolarining foydalanishga topshirilishida ham aks etdi. Xususan, foydalanishga topshirilgan uy-joylarning umumiy maydoni 3,3 mln kvadrat metrni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,6 foizga oshdi. Bunda, individual turar-joy segmentining ulushi yuqoriligicha saqlanib qoldi. Shu bilan birga, qurilish faoliyatiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi ham ortishda davom etdi.

Narxlar dinamikasi bozordagi yuqori faollik fonida tezlashdi. 2026-yil mart holatiga birlamchi uy-joy bozorida narxlar AQSh dollari hisobida 8,1 foizga, ikkilamchi bozorda esa 9,4 foizga oshdi. So'm hisobida esa narxlar mos ravishda 1,8 foiz va 3 foizga qimmatlashdi.

Birlamchi ko'chmas mulk bozoridagi xonadonlar narxlari dinamikasi, yillik, foizda



Ikkilamchi ko'chmas mulk bozoridagi xonadonlar narxlari dinamikasi, yillik, foizda




Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.


Ijara bozorida mo'tadil o'sish tendensiyalari saqlanib qoldi. Respublika bo'yicha ijara narxlari yillik hisobda so'mda 3,1 foizga, dollarda esa 9,5 foizga oshdi. Toshkent shahrida esa ijara narxlari o'sishi nisbatan pastroq shakllandi.

Yer uchastkalari segmentida Toshkent shahrida yer narxlari pasayish tendensiyasini davom ettirdi. Xususan, 1 sotix yer narxi yillik hisobda 6,4 foizga pasaydi. Mazkur holat, asosan, shaharning chekka hududlarida yer taklifining ortishi bilan izohlanadi.

Xonadonlar uchun ijara narxlari dinamikasi, yillik o'sish, dollar indeksida



Toshkent shahridagi yer uchastkalar narxlari dinamikasi, 100 kv.m uchun, mln so'mda



Manba: Markaziy bankning ochiq ma'lumotlar asosidagi hisob-kitoblari.

Umuman olganda, 2026-yil I choragi ma'lumotlari ko'chmas mulk bozorida faollik yuqori darajada saqlanib qolganini ko'rsatmoqda. Ushbu tendensiya ipoteka kreditlash hajmining kengayishi, yuqori qurilish faolligi hamda yangi eskrou tizimi joriy etilishi oldi qo'shimcha talabning vujudga kelgani bilan qo'llab-quvvatlandi. Shu bilan birga, ko'p-qavatli turar-joy binolarining qurilish tendensiyasi Toshkentdan tashqari boshqa hududlarda ham shaharlashuv jarayonlarining jadallashayotganini ko'rsatmoqda.

Ko'chmas mulk bozori tahlili to'liq matni bilan [havola](#) orqali tanishishingiz mumkin.